


BUXORO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019-yil yanvar-avgust*)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar- avgust oyida chakana savdo tovar aylanmasi 6176,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 925,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 39,7 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5250,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,4% ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 639,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`shish sur`atlari Kogon va Vobkent tumalarida qayd etildi.




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 39,7 % ga o`sdii va 925,3 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,0 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 5250,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar- avgust` oyiga nisbatan 3,4% ga oshdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,0 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %

2018-yil
yanvar-avgust




2019-yil
yanvar-avgust



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %



■ Kichik tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,5%) Shofirkon (99,1%), Olot (98,9%), Peshko' (98,6%), Romitan (98,6%), Jondor (98,4%), Kogon sh (97,9%), Qorako'l (97,8%), va Qorovulbozor (94,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Vobkent (51,1 %), Kogon (31,6 %), Buxoro sh (26,5%), va G'ijduvon (15,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro viloyati	925,3	139,7	5250,8	103,5
<i>tumanlar</i>				
Olot	1,5	110,8	125,4	107,6
Buxoro	1,3	107,6	274,5	107,3
Vobkent	115,4	193,9	266,4	94,9
G'ijduvon	169,9	123,6	919,6	99,9
Kogon	35,4	195,1	76,7	115,4
Qorovulbozor	5,6	78,9	93,5	108,5
Qorako'l	13,5	278,2	601,7	102,9
Peshko'	1,8	127,7	134,1	107,5
Romitan	5,3	72,1	381,3	108,6
Jondor	5,1	35,3	322,3	112,2
Shofirkon	2,4	62,5	255,5	107,2
Buxoro sh	563,0	141,3	1560,9	101,8
Kogon sh	5,1	92,7	238,8	104,8

Hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %

2018-yil
yanvar- avgust



2019-yil
yanvar- avgust



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
Buxoro viloyati	6176,1	6176,1	2,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	126,9	126,9	-
Buxoro	275,9	275,9	-
Vobkent	381,8	381,8	-
G'ijduvon	1089,5	1089,5	-
Kogon	112,1	112,1	-
Qorovulbozor	99,1	99,1	-
Qorako'l	615,2	615,2	-
Peshko'	136,0	136,0	-
Romitan	386,6	386,6	-
Jondor	327,4	327,4	-
Shofirkon	257,9	257,9	-
Buxoro sh	2124,0	2121,4	2,6
Kogon sh	243,9	243,9	-


2019-yil yanvar-avgust oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3249,4 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyatlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro viloyati	3249,4	106,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	1292,1	105,6
Buxoro	1679,1	105,2
Vobkent	1637,0	65,1
G'ijduvon	3622,0	101,3
Kogon	1457,2	129,2
Qorovulbozor	3790,4	102,4
Qorako'l	5447,5	105,4
Peshko'	1123,7	105,6
Romitan	2771,2	105,9
Jondor	1902,4	106,3
Shofirkon	1471,2	104,9
Buxoro sh	7607,3	109,1
Kogon sh	4004,3	103,8


Shuningdek, 2019-yilning yanvar-avgust oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,5 % ni tashkil etib, 215,7 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari
savdo aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)




Mulkchilik shakli bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %

2018-yil
yanvar- avgust



2019-yil
yanvar- avgust



■ Davlat mulki
■ Nodavlat mulki

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi**


	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
Buxoro viloyati	215673,4	215673,4	43,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	4362,9	4362,9	-
Buxoro	9576,6	9576,6	-
Vobkent	10502,7	10502,7	-
G'ijduvon	34441,6	34441,6	-
Kogon	2485,0	2485,0	-
Qorovulbozor	7649,3	7649,3	-
Qorako'l	21877,9	21877,9	-
Peshko'	4666,5	4666,5	-
Romitan	14091,6	14091,6	-
Jondor	10749,3	10749,3	-
Shofirkon	8915,6	8915,6	-
Buxoro sh	77830,8	77830,8	43,2
			-
Kogon sh	8523,6	8523,6	-

**BUXORO VILOYAT
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019-yil yanvar- avgust*)

Yil boshidan Buxoro viloyati bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1523,6 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,2 % ga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-avgust' oyi yakunlariga ko`ra, 982,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga oshdi.

Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 64,5 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslanganda, Buxoro (99,7%), Kogon sh (93,7%), Buxoro sh (89,9%), Peshku (87,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 35,5 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Qorovulbozor (99,3%), Kogon (89,3%), Qorako'l (79,0%), va Shofirkon (66,8%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi


	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro viloyati	1523,6	98,8	541,2	87,8	982,4	103,8
<i>tumanlar:</i>						
Olot	54,8	98,9	15,5	94,9	39,3	100,5
Buxoro	64,6	101,4	0,2	131,2	64,4	101,3
Vobkent	52,0	94,0	32,6	90,4	19,4	100,8
G'ijduvon	82,6	111,2	26,8	138,5	55,8	101,6
Kogon	300,4	111,1	268,3	112,6	32,1	99,4
Qorovulbozor	34,9	22,2	34,6	22,0	0,3	100,8
Qorako'l	23,3	127,6	18,5	137,1	4,8	99,3
Peshko'	201,7	106,3	26,2	163,3	175,5	101,0
Romitan	72,5	103,2	16,3	116,5	56,2	99,8
Jondor	89,6	100,8	27,1	105,7	62,5	98,8
Shofirkon	36,3	127,9	24,3	145,7	12	102,7
Buxoro sh	488,8	110,8	49,4	89,9	439,4	113,8
Kogon sh	22,1	76,1	1,4	16,1	20,7	101,5

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
Buxoro viloyati	1523,6	1523,6	-
<i>tumanlar:</i>			
Olot	54,8	54,8	-
Buxoro	64,6	64,6	-
Vobkent	52,0	52,0	-
G'ijduvon	82,6	82,6	-
Kogon	300,4	300,4	-
Qorovulbozor	34,9	34,9	-
Qorako'l	23,3	23,3	-
Peshko'	201,7	201,7	-
Romitan	72,5	72,5	-
Jondor	89,6	89,6	-
Shofirkon	36,3	36,3	-
Buxoro sh	488,8	488,8	-
Kogon sh	22,1	22,1	-

Joriy yilning yanvar-avgust oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 1523,6 mlrd. so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 1523,6 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Qorovulbozor tumani (22,2%), Kogon sh. (76,1%), Vobkent tumani (94,0 %) va Olot (97,5%) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bolimi
Tel.:71-230-83-22
65-223-75-63